

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.FM.02.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**XOMITOV SHERZOD ASATILLO O‘G‘LI**

**O‘TKINCHI 3d - METALLAR ASOSIDAGI QOTISHMALARNING  
ELEKTR, MAGNIT VA ISSIQLIK XOSSALARINI O‘RGANISH**

**01.04.09 – Magnit hodisalari fizikasi**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по физико-математическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on physical-mathematical sciences**

**Xomitov Sherzod Asatillo o‘g‘li**

О‘tkinchi 3d - metallar asosidagi qotishmalarning elektr, magnit va issiqlik  
xossalari o‘rganish ..... 3

**Хомитов Шерзод Асатилло угли**

Исследование электрических, магнитных и термических свойств сплавов на  
основе переходных 3d металлов ..... 27

**Khomitov Sherzod Asatillo ugli**

Study of electrical, magnetic and thermal properties of alloys based on transition  
3d metals ..... 51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 55

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.FM.02.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**XOMITOV SHERZOD ASATILLO O‘G‘LI**

**O‘TKINCHI 3d - METALLAR ASOSIDAGI QOTISHMALARNING  
ELEKTR, MAGNIT VA ISSIQLIK XOSSALARINI O‘RGANISH**

**01.04.09 – Magnit hodisalari fizikasi**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.4.PhD/FM1203 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Rajabov Rustam Mustafoyevich**  
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Sharipov Mirzo Zokirovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**O'sarov O'ktam Turatovich**  
fizika-matematika fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.FM.02.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «12» 06 soat 11<sup>30</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (99866) 239-13-87, 239-11-40; faks: (99866) 239-11-40; E-mail: [rektor@samdu.uz](mailto:rektor@samdu.uz) Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Muhandislik fizikasi instituti, 1-qavat, 114-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (46-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (99866) 239-13-87, 239-11-40; faks: (99866) 239-11-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «21» 05 kuni tarqatildi.  
(2025-yil «21» 05 dagi 46 raqamli reyestr bayonnomasi).



**M.X.Ashurov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
f.-m.f.d., akademik

**R.M.Rajabov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
f.-m.f.n., dotsent

**D.I.Semenov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash huzuridagi  
Ilmiy seminar raisi,  
f.-m.f.d., dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda hozirgi vaqtda fan va texnikaning tez sur'atlar bilan rivojlanishi metall va qotishmalarning elektr, magnit, galvanomagnit va issiqlik xossalari bo'yicha ko'p sonli tadqiqotlarni yechishni kun tartibiga qo'yimoqda. Bugungi kunda 3d-metallari asosidagi amorf ferromagnit qotishmalarning fizik xossalari va ichki tuzilishini o'rganish muhim masala hisoblanadi. Metallar va ularning qotishmalariga temperaturaning ta'siri ularning strukturaviy, hajmiy o'zgarishlari va erish jarayoni haqida muhim ma'lumotlar olish imkonini beradi. Bu esa amaliy jihatdan mashinasozlikda, metallarga termik ishlov berishda va muhandislik hisoblarida muhim ahamiyat kasb etadi. Amorf metall qotishmalarning fizik xossalarini o'rganish shu qotishmalarning suyuq holatdagi tarkibi va fizik xususiyatlari to'g'risida ma'lumot olish imkonini beradi. Bu xususiyatlar atomlari tartibsiz qotishmalar nazariyasini tahlil etishga xizmat qiladi, bu esa qattiq va suyuq metallar fizikasi, materialshunoslik va metallurgiya sanoati uchun muhim sanaladi.

Jahonda o'tkazilayotgan ko'p sonli tadqiqotlarning natijalari shundan dalolat beradiki, metall sistemalarning issiqlikka chidamliligi ularning individual xususiyatlariga: elektron tuzilishi, erish temperaturasini xarakterlovchi atomlararo bog'lanishiga, elastiklik moduliga, xarakteristik temperaturasiga bog'liqdir. Bu kabi masalalarni yechish metallarning elektr o'tkazuvchanligi, magnit va galvanomagnit xossalari hamda issiqlik xossalarini kompleks o'rganish orqali amalga oshirilgan. 3d metallari asosidagi qotishmalardan tayyorlangan materiallar, ularning magnit xossasiga ko'ra katta energiyali doimiy magnitlar tayyorlashda, xotira saqlovchi qurilmalarda, kichik hajmli transformatorlarning o'zagi uchun magnitayumshoq material sifatida foydalanilmoqda. Ularning qo'llanilish chegarasini yanada oshirish maqsadida yuqorida zikr etilgan fizik xossalarni, chuqur o'rganish bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning amaliy rivojlanishiga, jumladan, sanoatda keng foydalaniladigan o'tkinchi metallar asosidagi qotishmalarda yuz beradigan fizik hodisalarni tadqiq qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Amorf metall qotishmalarning fizik xususiyatlarini o'rganish ularning bevosita amaliyotdagi qo'llanilishi bilan bog'liq. Fan va texnika rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda elektron texnikada qo'llanilayotgan magnit materiallarga talab kundan kunga oshib bormoqda. Bunda amorf metall qotishmalar alohida o'rin egallab, ulardan elektron texnikada keng foydalanilmoqda. Shuning uchun bunday qotishmalarning elektr, magnit, galvanomagnit va issiqlik xossalarini metalloidlar konsentratsiyasi hamda temperaturaga bog'liq holda o'zgarishlarini o'rganish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni, 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi<sup>1</sup>, 2021 yil 19-martdagi

---

<sup>1</sup>Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2020 yil, 30 dekabr, №275-276(7746-7747), 1-bet.

PQ-5032-sonli “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi Qarori, 2022-yil 13-yanvardagi PQ-82-son “Samarqand davlat universiteti faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga aloqador boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi:** Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik» kabi ustuvor yo’nalishlariga muvofiq bajarildi.

**Muammoning o’rganilganlik darajasi:** O’tkinchi metallar asosidagi qotishmalarning elektr, magnit, galvanomagnit hamda issiqlik xossalari o’rganilgan bo’lsada, bu xususiyatlarning kompleks o’rganilganligi va bu xossalarning o’zaro aloqadorligiga bag’ishlangan ishlar kam uchraydi. Shularni e’tiborga olgan holda yuqorida keltirilgan xususiyatlarni kompleks o’rganish va bu xususiyatlarni o’zaro aloqadorligini ko’rsatish ishning asosiy qismi hisoblanadi. Bu masalalar to’liq hal etilsa ulardan amaliy maqsadlarda foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

So’nggi yillarda chet el olimlari: Dora Janovszky, Maria Sveda, (Hungary), M.L.Lobanov, S.V.Grib, L.Yu.Fetisov, Yu.K.Fetisov, N.S.Perov, D.V.Chashin, V.A.Kataev, R.S.Isxakov, V.Vedyaev, A.B.Granovskiy, A.L.Xoroshilov, A.S.Makarov, I.E.Permyakova (Rossiya), M.Yu.Barabash, L.Yu.Kunyts’ka, L.G.Khomenko, Yu.A.Kunyts’ky (Ukraina), J. Hemalatha (Hindiston), Lingxiang Shi, Xiaolu Qin, Kefu Yao, Y.Z.Wang, F.M.Yang, Y.S.Wu, M.Y.Feng, W.S.Zhan (Xitoy), M.M.Safarov (Tojikiston) lar tomonidan ferromagnit qotishmalarning turli xossalarni o’rganib fanning rivojiga katta hissa qo’shganlar.

O’zbekistonlik olimlardan xususan, akademik K.Muqimov, professorlar: O.Q.Quvondiqov, U.Valiyev, D.Jo’rayev, M.T.Normuradov, F.Axmedjanov, M.Sharipov, Sh.Raximov, A.S.Saidov, E.U.Arziqulov, O’.Usarov, dotsentlar: X.Shakarov, H.M.Norqorayev, I.Subhonqulov, N.S.Xamraev, R.M.Rajabov va boshqalar ushbu sohada uzoq yillar mobaynida ilmiy izlanishlar qilib, metall qotishmalar olinish usullarini, ularning elektr, magnit, galvanomagnit, magnitoptik, akustik va issiqlik xossalarni ham nazariy ham tajribaviy jihatdan o’rganganlar.

Oxirgi yillarda o’tkazilgan eksperimental va nazariy tadqiqotlar tahlili shuni ko’rsatdiki, temir guruhi elementlari asosidagi qotishmalarning elektr, magnit va issiqlik xossalari va ularning o’zaro aloqadorligi bo’yicha ma’lumotlar kam o’rganilgan hamda ularning magnit tabiatining turlicha bo’lish sabablari yetarli darajada o’rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog’liqligi.** Dissertatsiya ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqotlar o’tkazish rejasi doirasida, Umumiy fizika kafedrasining bosh ilmiy mavzusi: 2/7 d.q.r. 01860103966-raqamli “O’tkinchi va siyrak yer elementlari asosidagi qotishmalar, intermetallik birikmalarlarning elektr, magnit va galvanomagnit xossalarni

atomlarning tartibli va tartibsiz bo'lgan holda o'rganish" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** amorf holatdagi o'tkinchi 3d-metallari asosidagi qotishmalarning elektr, magnit, galvanomagnit va issiqlik xossalari bo'yicha tajriba natijalarini olish va bu xususiyatlarni ferromagnit va paramagnit sohada tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Fe-Ni-Si-C va Fe-Cr-B sistemasi qotishmalarining solishtirma elektr qarshiligi, Xoll koeffitsiyenti va solishtirma issiqlik sig'imi namunalarning amorf holatidan kristall holatga o'tish nuqtasigacha bo'lgan oraliqda temperaturaga bog'liqligi bo'yicha tajriba natijalarini olish;

o'rganilayotgan amorf qotishmalarning tuzilishi, issiqlik barqarorligi va kinetik xususiyatlariga metalloid konsentratsiyasining ta'sirini o'rganish;

o'tkinchi 3d-metallarning ferromagnit amorf qotishmalarining kristall holatga o'tish sohasida elektr, galvanomagnit va issiqlik xossalarini o'rganish;

amorf holatdagi Fe-Ni-Si-C va Fe-Cr-B sistemasiga kiruvchi qotishmalarning ferromagnit-paramagnit fazaviy o'tish sohasida solishtirma elektr qarshiligi, Xoll koeffitsiyenti va solishtirma issiqlik sig'imining temperaturaga bog'liqligini o'rganish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida temir guruhi elementlari asosidagi Fe-Ni-Si-C sistemasiga kiruvchi  $Fe_{67.3}Ni_{18.2}Si_{5.1}C_{9.4}$ ,  $Fe_{68.5}Ni_{19.1}Si_{4.9}C_{7.5}$ ,  $Fe_{70.5}Ni_{18.3}Si_{5.0}C_{6.2}$  va  $Fe_{71.6}Ni_{18.7}Si_{5.0}C_{4.7}$  hamda Fe-Cr-B sistemasiga kiruvchi  $Fe_{70}Cr_{15}B_{15}$ ,  $Fe_{73}Cr_{12}B_{15}$ ,  $Fe_{75}Cr_{10}B_{15}$  va  $Fe_{77}Cr_{8}B_{15}$  amorf qotishmalar tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** shu bilan xarakterlanadiki, 3d metallari asosidagi qotishmalarning elektr, magnit, galvanomagnit hamda issiqlik xossalarini kompleks tadqiq qilish, ular o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish va bu bog'liqlikni anomal Xoll effekti nazariyasi nuqtai nazaridan izohlash hamda tajriba natijalariga asoslanib, effektiv spin-orbital o'zaro ta'siri parametrini baholashdan iborat.

**Tadqiqot usullari:** Tadqiqot ishida temir guruhi elementlari asosidagi amorf qotishmalarning fizik xossalarini o'lchashda quyidagi usullardan foydalanilgan: element miqdor tarkibini rentgenospektral analiz (EDX) usuli, atomlar joylashuvi va diametrini o'lchashning morfologik tahlilini skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) usuli orqali, namunalar tuzilish holatini o'rganishning rentgenofazaviy tahlil (X-ray diffraction analysis) usuli, solishtirma elektr qarshiligi hamda Xoll effektini o'lchashning Van-der-Pau usuli, solishtirma magnitlanishini o'lchashning tebranishli magnetometr usuli, namunalar issiqlik sig'imini o'lchashning kalorimetrik usuli kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor Fe-Ni-Si-C va Fe-Cr-B sistemasi amorf qotishmalarining solishtirma elektr qarshiligi, Xoll koeffitsiyenti va solishtirma issiqlik sig'imi namunalarning amorf holatidan kristall holatga o'tish nuqtasigacha bo'lgan temperatura oralig'ida kompleks eksperimental natijalar olingan;

Fe-Ni-Si-C va Fe-Cr-B sistemasi amorf qotishmalarining solishtirma elektr qarshiligi, Xoll koeffitsiyenti va solishtirma issiqlik sig'imining temperaturaga

bog'liqligi o'rganilib, ikkinchi tur ferromagnit-paramagnit fazaviy o'tish aniqlangan;

metalloidlar (Si+C) ning Fe-Ni-Si-C sistemasi namunalarining tuzilishi, issiqlik barqarorligi va kinetik xususiyatlariga ta'siri o'rganilgan. O'rganilgan amorf qotishmalarda metalloidlar konsentratsiyasining ortishi bilan Xoll ko'effitsiyentining qiymati va kristallanish temperaturasi ortishi, Kyuri temperaturasi esa kamayishi aniqlangan;

anomal Xoll ko'effitsiyenti va solishtirma elektr qarshiligi o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek, metalloidlar konsentratsiyasining amorf qotishmalarda qarshilikning mutlaq qiymati va termik ko'effitsiyentiga ta'siri amorf holatda Vedyayev-Granovskiy nazariyasi bilan Muidji koorrelyatsiyasining muvofiqligi ko'rsatilgan;

Fe-Ni-Si-C va Fe-Cr-B sistemasiga kiruvchi amorf qotishmalarda solishtirma issiqlik sig'imining temperaturaga bog'liqligining eksperimental ravishda topilgan natijalari asosida amorf holatdan kristall holatga o'tishda nanokristall sohalarning hosil bo'lishi ko'rsatilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** shundan iboratki,

Fe-Ni-Si-C hamda Fe-Cr-B sistemasiga kiruvchi amorf qotishmalarning solishtirma issiqlik sig'imi  $C_p(T)$  ning temperaturaga bog'liqligidan, Kyuri temperaturasi  $T_C$ , kristallanish temperaturasi  $T_K$  va issiqlik effekti  $\Delta H$  entalpiyaning o'zgarishi aniqlandi.

O'tkinchi metallar asosidagi amorf ferromagnit qotishmalarga temperatura va tashqi magnit maydonining ta'siri orqali ularda yuz beradigan fazaviy o'tishlarni aniqlash mumkinligi ko'rsatildi.

Amorf ferromagnit qotishmalarga elektr, magnit, galvanomagnit va issiqlik xossalari kompleks tarzda tadqiq qilish orqali ularda yuz beradigan spin-orbital o'zaro ta'sir tabiatini baholash mumkinligi ko'rsatildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda o'rganilgan namunalarning elektr, magnit, galvanomagnit va issiqlik xossalarini tadqiq qilishda ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan ishonchli eksperimental tekshiruv usullari va tajriba o'tkazish imkoniyati yuqori bo'lgan qurilmalarda amalga oshirilganligi; tajribada olingan natijalarning nazariy va tajribaviy qiymatlarining o'zaro yaxshi mos kelganligi; o'lchash xatoliklarining tahlil qilinganligi; olingan natijalarning mavjud fizik tasavvurlar hamda ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga zid kelmasligi, shuningdek, Scopus ma'lumotlar bazasida indekslanuvchi ilmiy jurnallarda e'lon qilinganligi bilan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiya ishida olingan ilmiy natijalar o'tkinchi 3d-elementlar asosidagi amorf ferromagnit qotishmalarning elektr, magnit va issiqlik xossalarini tushuntirishda, shuningdek kondensirlangan holat nazariyasini, xususan atomlari tartibsiz qotishmalar nazariyasini tahlil etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, 3d-elementlar asosidagi amorf qotishmalarning elektr, magnit va galvanomagnit xossalarini tadqiq qilish

orqali koersitiv kuch qiymatlari asosida ulardan transformatorlarning o‘zagi va elektron asboblarning elementlari sifatida foydalanish mumkinligi ko‘rsatildi.

#### **Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi.**

Fe-Ni-Si-C sistemasiga kiruvchi amorf qotishmalarning tuzilishi, morfologiyasi va elektr xossalari tajriba natijalari FZGM-2023-0006-sonli loyiha doirasida olib borilgan tadqiqotlarda foydalanilgan (Rossiya Federatsiyasi Voronej davlat texnika universiteti. 2025 yil 20-yanvardagi dalolatnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi temir guruhi elementlari asosidagi yupqa plyonkali nanokompozit materiallarning termik stabiligini tushuntirish imkonini bergan;

Dissertatsiya ishidagi amorf ferromagnit qotishmalarning issiqlik sig‘imining temperaturaga bog‘liqlik natijalari organik moddalarning issiqlik xossalarini tushuntirishda foydalanilgan (M.S.Osimiy nomidagi Tojikiston texnika universiteti. 2025-yil 14-fevraldagi dalolatnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish ushbu moddalarda issiqlik effektlarni aniqlash imkonini bergan;

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Dissertatsiya ishining natijalari 9 ta Respublika va 8 ta Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma‘ruzalar qilinib tegishli muhokamalardan o‘tkazilgan va natijalar konferensiyalarning materiallari hamda tezislari to‘plamida chop etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (3 ta Scopus bazasidagi va 4 ta Respublika jurnallarida), 17 ta Xalqaro va Respublika miqyosida o‘tkazilgan konferensiyalarning materiallari hamda tezislari to‘plamida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 41 ta rasm va 8 ta jadvalni o‘z ichiga olgan holda 114 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotlarning respublika fan va texnika taraqqiyotining asosiy ustivor yo‘nalishlari bilan bog‘liqligi aniqlangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, vazifa va maqsadning shakllantirilganligi, aniqlangan ob‘ektlar, tadqiqot usuli va predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi tushuntirilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochilgan, ishning aprotatsiyasi va natijalarning joriy qilinishi haqida qisqacha ma‘lumotlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi keltirilgan.


Dissertatsiyaning “**O‘tkinchi 3d - metallar asosidagi qotishmalarning tuzilishi hamda elektr, magnit va issiqlik xossalari (Adabiyotlar sharhi)**” deb nomlangan birinchi bobida amorf ferromagnit qotishmalarning olinish usullari va qo‘llanilish sohalari, fizik xossalari tegishli tajriba va nazariy o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlar sharhi keltirilgan.

Shuningdek, amorf qotishmalar elektr, galvanomagnit, magnit va issiqlik xossalari nazariy asoslari, ahamiyati va zamonaviy tadqiqot usullari to‘g‘risida

ma'lumotlar keltirilgan. Bunday ma'lumotlar dissertatsiya ishining maqsadi, uni amalga oshirish va olingan natijalarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi bob oxirida bob bo'yicha xulosa va muammoning bayoni keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tajriba tadqiqotlarining texnikasi va usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot namunalari sifatida Fe-Ni-Si-C sistemasiga kiruvchi  $\text{Fe}_{67.3}\text{Ni}_{18.2}\text{Si}_{5.1}\text{C}_{9.4}$ ,  $\text{Fe}_{68.5}\text{Ni}_{19.1}\text{Si}_{4.9}\text{C}_{7.5}$ ,  $\text{Fe}_{70.5}\text{Ni}_{18.3}\text{Si}_{5.0}\text{C}_{6.2}$  va  $\text{Fe}_{71.6}\text{Ni}_{18.7}\text{Si}_{5.0}\text{C}_{4.7}$  hamda Fe-Cr-B sistemasiga kiruvchi  $\text{Fe}_{70}\text{Cr}_{15}\text{B}_{15}$ ,  $\text{Fe}_{73}\text{Cr}_{12}\text{B}_{15}$ ,  $\text{Fe}_{75}\text{Cr}_{10}\text{B}_{15}$  va  $\text{Fe}_{77}\text{Cr}_8\text{B}_{15}$  amorf qotishmalar olindi. Namunalarning tuzilishi, morfologiyasini o'rganish maqsadida foydalanilgan SEM - EVO MA 10 (Zeiss, Germany) skanerlash elektron mikroskopi, XRD Malvern PANalytical® Empyrean Series 3 rentgen difraktometri, solishtirma elektr qarshilik va Xoll effektini o'lchashning Van der-Pau usuliga asoslangan qurilma, solishtirma issiqlik sig'imini o'lchovchi STA PT 1600 kalorimetrik sinxron termoanalizator va magnitlanishni o'lchovchi tebranishli magnetometr tajriba qurilmalarining tuzilishi va ishlash prinsipi bayon qilingan. Batafsil tahlillar ko'rsatdiki, ushbu qurilmalarda olib borilgan o'lchashdagi maksimal xatolik 3% dan oshmaydi.


Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Fe-Ni-Si-C sistemasiga kiruvchi amorf qotishmalarning elektr, galvanomagnet va issiqlik xossalari hamda ular o'rtasidagi aloqadorlik”** deb nomlangan bo'lib, ishda tarkibida Fe-Ni-Si-C elementlari bo'lgan amorf qotishmalarning tuzilishi rentgenofazoviy tahlil usulida o'rganildi. Bunda lenta ko'rinishidagi namunadan  $10 \times 10 \times 0.025$  mm o'lchamda olinib, maxsus kyuvetaga joylashtirildi va uning sirtiga monoxromatik rentgen nurlari  $10 - 70^\circ$  burchak ostida tushirildi. Natijada Rentgen nurlari Vulf – Bregg shartini qanoatlantiruvchi burchak ostida joylashgan namunada difraksiyalanadi. Difraksiyalangan Rentgen nurlari intensivligining namuna sirtiga tushish burchagiga bog'liqlik spektridan namunalarning tuzilishi tahlil qilindi. Olingan natijalar 1-rasmda ko'rsatilgan. 1-rasmdan ko'rinadiki XRD spektrning diffraksiya  $2\theta = 40^\circ - 50^\circ$  burchaklar oralig'ida keng spektrni berdi va  $45^\circ$  da maksimum kuzatildi. Bu maksimum namunaning amorf holatiga to'g'ri keladi.



**1-rasm. «XRD- Panalytical Empyrean» rentgen difraktometrida olingan Fe-Ni-Si-C sistemasiga kiruvchi  $\text{Fe}_{67.3}\text{Ni}_{18.2}\text{Si}_{5.1}\text{C}_{9.4}$ ,  $\text{Fe}_{68.5}\text{Ni}_{19.1}\text{Si}_{4.9}\text{C}_{7.5}$ ,  $\text{Fe}_{70.5}\text{Ni}_{18.3}\text{Si}_{5.0}\text{C}_{6.2}$  va  $\text{Fe}_{71.6}\text{Ni}_{18.7}\text{Si}_{5.0}\text{C}_{4.7}$  qotishmalarning rentgen spektri.**

Namunalarning elementlar tarkibi o'rtasidagi muvofiqlikni aniqlash uchun SEM - EVO MA 10 (Zeiss, Germany) skanerlash elektron mikroskopidan foydalanildi. Fe-Ni-Si-C sistemasiga kiruvchi qotishmalarning ushbu mikroskopda olingan tasvirlari 2-rasmda keltirilgan. Barcha namunalar uchun tasvirlar


skanerlovchi elektron mikroskop yordamida 250÷500 μm masshtabda olindi. 2-rasmning tahlili koʻrsatadiki, namunalar tarkibidagi elementlarning miqdori ishlab chiqaruvchilar tomonidan taqdim etilgan qiymati bilan yaxshi mos keladi.



**2-rasm. Skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) yordamida amorf holatda Si va C metalloidlari qoʻshilgan Fe va Ni asosidagi qotishmalarning elementlar tarkibi tasvirlari: a)  $\text{Fe}_{67.3}\text{Ni}_{18.2}\text{Si}_{5.1}\text{C}_{9.4}$ , b)  $\text{Fe}_{68.5}\text{Ni}_{19.1}\text{Si}_{4.9}\text{C}_{7.5}$ , c)  $\text{Fe}_{70.5}\text{Ni}_{18.3}\text{Si}_{5.0}\text{C}_{6.2}$ , d)  $\text{Fe}_{71.6}\text{Ni}_{18.7}\text{Si}_{5.0}\text{C}_{4.7}$ .**

Amorf holatdagi Fe-Ni-Si-C sistemasiga kiruvchi ferromagnit qotishmalarda solishtirma elektr qarshiligi  $\rho$  va Xoll koeffitsiyenti  $R_H$  ning temperatura T ga bog'liqligini xona temperaturasidan to 773K temperatura oralig'ida eksperimental o'rganildi. Ushbu ferromagnit qotishmalarning solishtirma elektr qarshiligi  $\rho$  va Xoll koeffitsiyentining temperatura T ga bog'liqligini Van der Pau usuli yordamida o'lchandi.

$\text{Fe}_{67.3}\text{Ni}_{18.2}\text{Si}_{5.1}\text{C}_{9.4}$ ,  $\text{Fe}_{68.5}\text{Ni}_{19.1}\text{Si}_{5.0}\text{C}_{7.5}$ ,  $\text{Fe}_{70.5}\text{Ni}_{18.3}\text{Si}_{5.0}\text{C}_{6.2}$  va  $\text{Fe}_{71.6}\text{Ni}_{18.7}\text{Si}_{5.0}\text{C}_{4.7}$  amorf qotishmalarning solishtirma elektr qarshiligining temperaturaga bog'liqligi 3-rasmda tasvirlangan.



**3-rasm. Amorf holatdagi Fe-Ni-Si-C sistemasiga kiruvchi qotishmalarning solishtirma elektr qarshiligining temperaturaga bog'liqligi.**

3-rasmdan ko'rinadiki, o'rganilgan barcha amorf ferromagnit qotishmalar uchun solishtirma elektr qarshilik temperatura oshishi bilan ortib borishi kuzatilgan.

Namunalar tarkibida metalloidlarning (Si+C) konsentratsiyasining oshishi, tok tashuvchi zaryadlarning sonining kamayishiga va uning tarqalish potensialining oshishiga, bu esa namunalar solishtirma elektr qarshiligi  $\rho$  ni oshishiga olib keladi, qarshilikning temperatura koeffitsiyenti  $\partial\rho/\partial T$  esa kamayadi. O'rganilayotgan qotishmalarning solishtirma elektr qarshiligining temperaturaga bog'liqligini tahlil qilish korsatadiki, metalloidlarning konsentratsiyasi ortishi bilan solishtirma elektr qarshiligining mutlaq qiymati  $\rho_0$  ortadi va uning temperatura koeffitsiyenti  $\partial\rho/\partial T$  kamayadi.

O'rganilgan namunalar uchun xona temperaturasida solishtirma elektr qarshilik  $\rho$  ning mutlaq qiymati, qarshilikning temperatura koeffitsiyenti  $\partial\rho/\partial T$  va Kyuri harorati  $T_C$  natijalari 1-jadvalda keltirilgan.


1-jadval.

Fe-Ni-Si-C sistemasiga kiruvchi qotishmalarning mutlaq solishtirma elektr qarshiligi  $\rho_0$ , qarshilikning temperatura ko'effitsiyenti  $\partial\rho/\partial T$  va Kyuri temperaturasi  $T_C$  natijalari

| Namuna   | %<br>(Si+C) | $\rho_0$<br>$\times 10^{-8} \Omega m$ | $\partial\rho/\partial T$<br>$\times 10^{-10} \Omega m K^{-1}$ | $T_C$ ,<br>K |
|--|-------------|---------------------------------------|--|--------------|
| Fe <sub>71.6</sub> Ni <sub>18.7</sub> Si <sub>5.0</sub> C <sub>4.7</sub> | 9,7         | 134.8                                 | 3,86   | 770          |
| Fe <sub>70.5</sub> Ni <sub>18.3</sub> Si <sub>5.0</sub> C <sub>6.2</sub> | 11,2        | 157.5                                 | 3,44   | 767          |
| Fe <sub>68.5</sub> Ni <sub>19.1</sub> Si <sub>4.9</sub> C <sub>7.5</sub> | 12,5        | 162                                   | 3,3  | 764          |
| Fe <sub>67.3</sub> Ni <sub>18.2</sub> Si <sub>5.1</sub> C <sub>9.4</sub> | 14,5        | 187                                   | 3,15   | 761          |


1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, namunalar tarkibida metalloidlarning (Si+C) konsentratsiyasining ortishi bilan Kyuri temperaturasi  $T_C$  ning kamayishi kuzatiladi. Bunga sabab, namunada ferromagnit metallar konsentratsiyasining kamayishi ferromagnit atomlari orasidagi almashinuv o'zaro ta'sir energiyasini kamayishiga, bu esa Kyuri temperaturasini kamayishiga olib keladi deyish mumkin. O'z navbatida, metalloidlarning konsentratsiyasining oshishi namunada effektiv zaryad tashuvchilarning sonini kamaytiradi, bu esa solishtirma elektr qarshiligining mutlaq qiymatining oshishiga olib keladi.

Amorf holatdagi Fe-Ni-Si-C sistemasiga kiruvchi ferromagnit qotishmalar Xoll ko'effitsiyenti  $R_H$  ning temperatura  $T$  ga bog'liqligini eksperimental ravishda xona haroratidan boshlab, 773 K gacha bo'lgan temperatura oralig'ida eksperimental tadqiq qilindi. Tajribalar Van der Pau usuliga asoslangan Xoll effektini o'lchash qurilmasi yordamida amalga oshirildi. Fe-Ni-Si-C sistemasiga kiruvchi Fe<sub>67.3</sub>Ni<sub>18.2</sub>Si<sub>5.1</sub>C<sub>9.4</sub>, Fe<sub>68.5</sub>Ni<sub>19.1</sub>Si<sub>4.9</sub>C<sub>7.5</sub>, Fe<sub>70.5</sub>Ni<sub>18.3</sub>Si<sub>5.0</sub>C<sub>6.2</sub> va Fe<sub>71.6</sub>Ni<sub>18.7</sub>Si<sub>5.0</sub>C<sub>4.7</sub> amorf qotishmalarning Xoll ko'effitsiyenti  $R_H$  ning temperaturaga bog'liqligi 4 - rasmda tasvirlangan.



4-rasm.  
Fe-Ni-Si-C sistemasiga kiruvchi amorf qotishmalarning Xoll ko'effitsiyentining temperaturaga bog'liqligi

4-rasmdan ko‘rinadiki, namunalar Xoll koeffitsiyenti temperatura ortishi bilan ortib boradi. Temperaturaning ma’lum bir qiymatiga yetganda Xoll koeffitsiyentining sakrab kamayishi kuzatiladi. Bu temperaturalar namunalar uchun mos ravishda:  $\text{Fe}_{67.3}\text{Ni}_{18.2}\text{Si}_{5.1}\text{C}_{9.4}$  uchun  $T_K=761$  K,  $\text{Fe}_{68.5}\text{Ni}_{19.1}\text{Si}_{4.9}\text{C}_{7.5}$  uchun  $T_K=764$  K,  $\text{Fe}_{70.5}\text{Ni}_{18.3}\text{Si}_{5.0}\text{C}_{6.2}$  uchun  $T_K=767$  K va  $\text{Fe}_{71.6}\text{Ni}_{18.7}\text{Si}_{5.0}\text{C}_{4.7}$  uchun  $T_K=770$  K qiymatga ega bo‘lib, bu temperaturalarda namunalarda II tur fazaviy o‘tish ferromagnetizm-paramagnetizm yuz beradi. Tahlillar ko‘rsatdiki, namunalar Xoll koeffitsiyentining temperaturaga  $R_H(T)$  bog‘liqligidan aniqlangan Kyuri temperaturalari shu namunalarning solishtirma elektr qarshiligini temperaturaga bog‘liqlik natijalaridan aniqlangan Kyuri temperaturalari bilan yetarlicha mos keladi. Tahlil natijalarini umumlashtirib, grafik ko‘rinishda quyidagicha tasvirlash mumkin.



**5-rasm.**  
**Fe-Ni-Si-C sistemasiga**  
**kiruvchi**  
**qotishmalarning Kyuri**  
**temperaturasi  $T_C$  va**  
**solishtirma elektr**  
**qarshiligi  $\rho_0$  ning**  
**metalloidlar (Si+C)**  
**konsentratsiyasiga**  
**bog‘liqligi**


5-rasmdan ko‘rinadiki, Fe-Ni-Si-C sistemasiga kiruvchi qotishmalar tarkibida metalloidlar (Si+C) konsentratsiyasining oshishi bilan Kyuri temperaturasi  $T_C$  ning kamayishi kuzatiladi. O‘z navbatida, metalloidlar konsentratsiyasining oshishi va ferromagnit metallari konsentratsiyasining kamayishi namunada effektiv zaryad tashuvchilarning sonini kamaytiradi, bu esa solishtirma elektr qarshiligining mutlaq qiymatining oshishiga olib keladi.

$\rho(T)$  va  $R_S(T)$  ning temperaturaga bog‘liqligidan ma’lum temperatura oralig‘i ( $T < T_C$ ) da  $R_S/\rho$  va  $\rho$  o‘rtasida chiziqli bog‘liqlik kuzatildi, bu esa  $R_S = a\rho + b\rho^2$  ifodani tasdiqlaydi. Bu ifodadagi a va b koeffitsiyentlarining qiymatlari 2-jadvalda keltirilgan.

**2-jadval.**

| Namuna  | Harorat diapazoni, K | $a \cdot 10^{-3}, m^2/\Omega C$ | $b \cdot 10^{-5}, m/\Omega^2 C$ |
|---|----------------------|---------------------------------|---------------------------------|
| $\text{Fe}_{67.3}\text{Ni}_{18.2}\text{Si}_{5.1}\text{C}_{9.4}$ | 300-550              | 19.8                            | 2.1                             |
| $\text{Fe}_{68.5}\text{Ni}_{19.1}\text{Si}_{4.9}\text{C}_{7.5}$ | 300-500              | 18.2                            | 6.3                             |
| $\text{Fe}_{70.5}\text{Ni}_{18.3}\text{Si}_{5.0}\text{C}_{6.2}$ | 300-550              | 17.4                            | 7.5                             |
| $\text{Fe}_{71.6}\text{Ni}_{18.7}\text{Si}_{5.0}\text{C}_{4.7}$ | 350-600              | 12.6                            | 13.5                            |

Anomal Xoll koefitsiyentining qiymati odatda yuqori metalloid tarkibiga ega bo'lgan qotishmalarda ancha katta bo'ladi. Bu, ehtimol, Xoll koefitsiyenti va amorf holatdagi qotishmalarning elektr qarshiligi o'rtasidagi bog'liqlikning bevosita natijasidir.



**6-rasm. Fe-Ni-Si-C sistemasi amorf qotishmalari uchun  $R_s/\rho$  ning  $\rho$  ga bog'liqligi: a)  $Fe_{67.3}Ni_{18.2}Si_{5.1}C_{9.4}$ ; b)  $Fe_{68.5}Ni_{19.1}Si_{4.9}C_{7.5}$ ; c)  $Fe_{70.5}Ni_{18.3}Si_{5.0}C_{6.2}$ ; d)  $Fe_{71.6}Ni_{18.7}Si_{5.0}C_{4.7}$**

Anomal Xoll koefitsiyenti  $R_s$  ning qiymati namuna strukturasi bog'liq bo'lib, to'liq vektor, psevdopotensial bilan aniqlanadi va qotishmalarning mikro tuzilishiga juda sezgir parameter hisoblanadi. Ferromagnit qotishmalarning amorf holati uchun  $R_s = a\rho + b\rho^2$  tenglamaning  $a$  va  $b$  koefitsiyentlari qiymatlaridagi farqlar amorf lanish paytida elektron spektrning qisman o'zgarishini ko'rsatadi, bu esa zaryad tashuvchilarning qisman lokallanishiga olib keladi.

Solishtirma elektr qarshiligi va Xoll koefitsiyentining temperaturaga bog'liqligi haqidagi ma'lumotlardan foydalanib, Fe-Ni-Si-C sistemasiga kiruvchi to'rtta ferromagnit amorf qotishmalarida effektiv spin-orbital o'zaro ta'siri  $\lambda_{so}$  parametri hisoblab chiqilgan. Bu parameter quyidagi formula yordamida hisoblanadi<sup>2</sup>.

$$R_s = \frac{2e^2}{\mu_0 \mu_B \hbar g} \rho^2 \lambda_{so} \quad (1)$$

bu yerda  $\mu_B = 0,927 \cdot 10^{-23}$  J/Tl – Bor magnitoni,  $\mu_0 = 4\pi \cdot 10^{-7}$  Gn/m – magnit doimiysi,  $\hbar = 1,054 \cdot 10^{-34}$  J·s – Plank doimiysi,  $e = 1,6 \cdot 10^{-19}$  C –

<sup>2</sup> Trudeau M., Cochrane R. W., Baxter D. V., Strom-Olsen J. O. and Muir W. B. // Phys. Rev., v.37, N 9, 1988, p.4499-4502. <https://doi.org/10.1103/PhysRevB.37.4499>

elektron zaryadi,  $\rho$  – solishtirma elektr qarshilik, o‘tkinchi metallari uchun  $g \approx 2$  Lande koeffitsiyenti,  $\lambda_{SO}$  - spin-orbital o‘zaro ta’sirining effektiv parametri.

(1) formuladan foydalanib,  $\lambda_{SO}$  topiladi. Hisoblash natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

### 3-jadval

**Fe-Ni-Si-C sistemasidagi qotishmalarning ferromagnit holati uchun Xoll koeffitsiyenti  $R_H$ , solishtirma elektr qarshiligi  $\rho$  va effektiv spin-orbital o‘zaro ta’sirining parametri  $\lambda_{SO}$  qiymatlari**

|       | <i>Fe<sub>71.6</sub>Ni<sub>18.7</sub>Si<sub>5.0</sub>C<sub>4.7</sub></i> |                                  |                                      | <i>Fe<sub>70.5</sub>Ni<sub>18.3</sub>Si<sub>5.0</sub>C<sub>6.2</sub></i> |                                  |                                      |
|-------|--|----------------------------------|--------------------------------------|--|----------------------------------|--------------------------------------|
| T (K) | $R_H \cdot 10^{-8}$<br>$\left[\frac{m^3}{C}\right]$                      | $\rho \cdot 10^{-8}$<br>[Om · m] | $\lambda_{SO} \cdot 10^{-21}$<br>[J] | $R_H \cdot 10^{-8}$<br>$\left[\frac{m^3}{C}\right]$                      | $\rho \cdot 10^{-8}$<br>[Om · m] | $\lambda_{SO} \cdot 10^{-21}$<br>[J] |
| 300   | 6.05   | 134                              | 1.61                                 | 5.54   | 157                              | 1.07                                 |
| 350   | 6.1  | 136                              | 1.59                                 | 5.45   | 158                              | 1.04                                 |
| 400   | 6.2  | 137                              | 1.58                                 | 5.5  | 159                              | 1.04                                 |
| 450   | 6.25   | 138.5                            | 1.56                                 | 5.6  | 161                              | 1.03                                 |
| 500   | 6.3  | 140                              | 1.55                                 | 5.7  | 163                              | 1.02                                 |
| 550   | 6.4  | 141                              | 1.54                                 | 5.85   | 165                              | 1.02                                 |
| 600   | 6.46   | 142.5                            | 1.53                                 | 6  | 167                              | 1.03                                 |
| 650   | 6.55   | 144                              | 1.52                                 | 6.1  | 168.5                            | 1.02                                 |
| 700   | 6.65   | 145                              | 1.51                                 | 6.15   | 170                              | 1.02                                 |

|       | <i>Fe<sub>68.5</sub>Ni<sub>19.1</sub>Si<sub>4.9</sub>C<sub>7.5</sub></i> |                                  |                                      | <i>Fe<sub>67.3</sub>Ni<sub>18.2</sub>Si<sub>5.1</sub>C<sub>9.4</sub></i> |                                  |                                      |
|-------|--|----------------------------------|--------------------------------------|--|----------------------------------|--------------------------------------|
| T (K) | $R_H \cdot 10^{-8}$<br>$\left[\frac{m^3}{C}\right]$                      | $\rho \cdot 10^{-8}$<br>[Om · m] | $\lambda_{SO} \cdot 10^{-21}$<br>[J] | $R_H \cdot 10^{-8}$<br>$\left[\frac{m^3}{C}\right]$                      | $\rho \cdot 10^{-8}$<br>[Om · m] | $\lambda_{SO} \cdot 10^{-21}$<br>[J] |
| 300   | 4.82   | 161                              | 0.891                                | 4.3  | 186                              | 0.595                                |
| 350   | 4.9  | 162                              | 0.895                                | 4.4  | 187.5                            | 0.599                                |
| 400   | 5  | 163                              | 0.902                                | 4.47   | 189                              | 0.599                                |
| 450   | 5.05   | 164                              | 0.9                                  | 4.55   | 192                              | 0.591                                |
| 500   | 5.1  | 165.5                            | 0.892                                | 4.6  | 194                              | 0.585                                |
| 550   | 5.2  | 166.5                            | 0.899                                | 4.7  | 196                              | 0.586                                |
| 600   | 5.3  | 167.5                            | 0.9                                  | 4.75   | 197                              | 0.586                                |
| 650   | 5.35   | 168                              | 0.905                                | 4.8  | 197.5                            | 0.589                                |
| 700   | 5.4  | 169                              | 0.906                                | 4.83   | 199                              | 0.584                                |

3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ferromagnit holatda effektiv spin-orbital o‘zaro ta’sirining parametri temperaturaga kuchsiz bog‘liq va temperatura oshishi bilan kamayadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, ferromagnit holatda effektiv spin-orbital o‘zaro ta’siri  $\lambda_{SO}$  asosan o‘tkazuvchi elektronlarining spinlarda sochilishiga asoslangan.


Fe-Ni-Si-C sistemasiga kiruvchi  $Fe_{67.3}Ni_{18.2}Si_{5.1}C_{9.4}$ ,  $Fe_{68.5}Ni_{19.1}Si_{4.9}C_{7.5}$ ,  $Fe_{70.5}Ni_{18.3}Si_{5.0}C_{6.2}$  va  $Fe_{71.6}Ni_{18.7}Si_{5.0}C_{4.7}$  amorf qotishmalar uchun kalorimetrik

tahlil o'tkazildi. Bu namunalarda massa, issiqlik oqimi va solishtirma issiqlik sig'iminining temperaturaga bog'liqligi xona temperaturasidan 1273 K temperatura oralig'ida eksperimental tadqiq qilindi.

O'rganilgan amorf qotishmalarning issiqlik sig'imiga temperaturaning ta'siri bo'yicha olingan eksperimental natijalar ularda yuzaga keladigan strukturaviy o'zgarishlarni aniqlash imkoni beradi. Amorf qotishmalarning issiqlik xossalari DSC yordamida aniqlandi. Tajribalar ko'rsatdiki, namunalar taxminan 770 K temperaturagacha termik barqarorligini saqlaydi, temperaturaning keyingi o'zgarishlarida namunalarda II-tur fazaviy ferromagnetizm-paramagnetizm o'tishi va kristall holatga o'tish kuzatildi. Strukturaviy o'zgarishlar DSC natijalarida faqat ikkita aniq belgilangan ekzotermik cho'qqilar kuzatildi ular mos ravishda Kyuri temperaturasi va kristallanish temperaturasini anglatadi, bu 770-790 K va 1120-1200 K temperaturalar oralig'ida kuzatildi.

Ushbu 1120-1200 K temperaturalar oralig'ida kuzatilgan minimumlarning paydo bo'lishi, ehtimol, to'liq kristallanish jarayonida yuzaga keladigan murakkab jarayonlar bilan bog'liq.

7-rasmda o'rganilayotgan amorf qotishmalar uchun doimiy bosimdagi ( $C_p$ , [J/g · K]) issiqlik sig'imining temperatura ( $T$ , [K]) ga bog'liqligi ko'rsatilgan.



**7-rasm. Fe-Ni-Si-C sistemasida amorf qotishmalarning solishtirma issiqlik sig'imi  $C_p$  ning temperaturaga bog'liqligi.**


Fe-Ni-Si-C sistemasiga kiruvchi barcha o'rganilgan namunalar uchun  $\Delta H$ -entalpiyaning qiymatlari 4-jadvalda keltirilgan. Keltirilgan qiymatlar namunalar xona temperaturasidan 1200 K gacha qizdirilganda issiqlik effekti va kristallangan qismi hajmini ifodalaydi.

Fe-Ni-Si-C sistemasi qotishmalarining  $\Delta H$  –entalpiya o‘zgarishi qiymatlari

| Namuna   | Issiqlik effekti<br>$\Delta H_1$<br>[J/g]<br>(770 - 805 K) | Issiqlik effekti<br>$\Delta H_2(\text{umumiy})$<br>[J/g]<br>(920 – 1200 K) | Issiqlik effekti<br>$\Delta H_2(\text{am+kr})$<br>[J/g]<br>(920 – 1140 K) | $V_{\text{frak}}$ ,<br>% |
|--|--|--|---|--------------------------|
| Fe <sub>67.3</sub> Ni <sub>18.2</sub> Si <sub>5.1</sub> C <sub>9.4</sub> | -128.2   | -11580.5   | -1277   | 88                       |
| Fe <sub>68.5</sub> Ni <sub>19.1</sub> Si <sub>4.9</sub> C <sub>7.5</sub> | -164.2   | -14058.4   | -1636.8   | 88                       |
| Fe <sub>70.5</sub> Ni <sub>18.3</sub> Si <sub>5.0</sub> C <sub>6.2</sub> | -151.4   | -15855.0   | -1295   | 91                       |
| Fe <sub>71.6</sub> Ni <sub>18.7</sub> Si <sub>5.0</sub> C <sub>4.7</sub> | -143.1   | -11848.3   | -1194.5   | 90                       |

7-rasmda tasvirlangan tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, 770 K temperaturagacha namunalar sezilarli issiqlik effektini keltirib chiqaradigan hech qanday fazali o‘zgarishlarga duch kelmaydi, 770 K temperaturada birinchi issiqlik effekti kuzatiladi, u 805 K temperaturagacha davom etadi. 900 K dan boshlab solishtirma issiqlik sig‘imining qiymati kamayib borib, 1100 K da keskin kamayishi kuzatildi. Ushbu issiqlik effekti namuna tarkibida nanokristallik strukturalarining hosil bo‘lishini izohlaydi. Shundan so‘ng, 1140 K da keyingi issiqlik effekti kuzatiladi, namuna to‘liq kristall holatga o‘tadi. Bu 1140 – 1200 K temperatura oralig‘ida sodir bo‘ladi. Birinchi issiqlik effekti qotishmaning amorf holatda nanokristall sohalarining paydo bo‘lishi vaqtidagi issiqlikning yutilishiga to‘g‘ri keladi, ikkinchi issiqlik effekti qayta kristallanish tipidagi fazaviy o‘tish paytida issiqlikning yutilishiga to‘g‘ri keladi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “Fe-Cr-B sistemasiga kiruvchi amorf qotishmalarning elektr, galvanomagnet, magnit va issiqlik xossalari hamda ularning tahlili” deb nomlangan bo‘lib, bunda o‘rganilayotgan namunalarning tuzilishi va holati haqida ma‘lumot olish uchun «Panalytical Empyrean» rentgen difraktometrida rengenofazaviy tahlili olindi.




8-rasm. «Panalytical Empyrean» rentgen difraktometrida olingan amorf metall qotishmalarining rentgen spektri:

a) Fe<sub>70</sub>Cr<sub>15</sub>B<sub>15</sub>, b) Fe<sub>73</sub>Cr<sub>12</sub>B<sub>15</sub>,  
c) Fe<sub>75</sub>Cr<sub>10</sub>B<sub>15</sub> va d) Fe<sub>77</sub>Cr<sub>8</sub>B<sub>15</sub>

8-rasmning tahlili ko‘rsatadiki, o‘rganilgan namunalar XRD spektrida kristalli fazalarga mos keladigan keskin diffraksiya cho‘qqilari kuzatilmadi, bu barcha namunalar amorf holatda ekanligini tasdiqlaydi. Diffraksiya spektrlari taxminan 45° burchakda amorf qotishmalarga xos bo‘lgan keng burchakli cho‘qqilarni ko‘rsatdi.

Fe-Cr-B sistemasiga kiruvchi amorf qotishmalarning elementlar tarkibi o‘rtasidagi muvofiqlikni aniqlash uchun SEM - EVO MA 10 (Zeiss, Germany)


skanerlash elektron mikroskopi yordamida namunalar 100  $\mu\text{m}$  o'lchamdagi tasvirlari va o'rganilayotgan namunaning elementlar tarkibining miqdoriy tahlili eksperimental ravishda olindi va buning tasvirlari quyidagi 9-rasmدا keltirilgan.



**9-rasm. Skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) yordamida FeCrB sistemasiga kiruvchi amorf qotishmalarning elementlar tarkibi tasvirlari: a)  $\text{Fe}_{70}\text{Cr}_{15}\text{B}_{15}$ , b)  $\text{Fe}_{73}\text{Cr}_{12}\text{B}_{15}$ , c)  $\text{Fe}_{75}\text{Cr}_{10}\text{B}_{15}$  va d)  $\text{Fe}_{77}\text{Cr}_8\text{B}_{15}$**

9-rasmda skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) yordamida olingan namunalarning mikrostrukturaviy tasviri va ularning energiya dispersiyali rentgen spektroskopiyasi (EDX) natijalari keltirilgan. 9-rasmdagi har bir grafikda gorizontal o'qda energiya va vertikal o'qda esa intensivlik ko'rsatilgan. Olingan spektrlardan ko'rishimiz mumkinki, grafiklarda uchta asosiy element Fe (temir), Cr (xrom) va B (bor) larning miqdoriy ulushlari keltirilgan: Tahlillar ko'rsatadiki, elektron mikroskop (SEM) va energiya dispersiyali rentgen spektroskopiyasi (EDX) natijalari ishlab chiqaruvchilar tomonidan berilgan namuna tarkibidagi elementlarning miqdoriy ulushlari to'g'risidagi ma'lumotlarini to'la tasdiqlaydi.

Amorf holatdagi Fe-Cr-B sistemasiga kiruvchi qotishmalarning solishtirma elektr qarshiligining temperaturaga bog'liqligi 10 - rasmda tasvirlangan.



### 10-rasm. Fe-Cr-B sistemasiga kiruvchi qotishmalarning solishtirma elektr qarshiligining temperaturaga bog'liqligi

10-rasmdan ko'rinadiki, barcha namunalar uchun solishtirma elektr qarshilik temperaturadan kuchsiz bog'langan. O'rganilgan amorf metall qotishmalarning deyarli barchasida solishtirma elektr qarshilik  $\rho$  xona temperaturasidan kristallanish temperaturasigacha monoton oshib boradi va qarshilikning temperatura koeffitsiyenti QTK -  $\partial\rho/\partial T$  esa quyidagicha bo'ladi:

$\text{Fe}_{70}\text{Cr}_{15}\text{B}_{15}$  qotishma uchun  $\frac{\partial\rho}{\partial T} = 2,62 \cdot 10^{-2} \frac{\mu\text{Om}\cdot\text{sm}}{\text{K}}$ ,  $\text{Fe}_{73}\text{Cr}_{12}\text{B}_{15}$  amorf qotishma


